

ANDIJON VILOYATIDA bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- V. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-mart oylarida, Andijon viloyatida jami 2 232,3 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 107,7 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida, xususan, Andijon shahri (644,2 mlrd so'm), Andijon tuman (249,3 mlrd so'm) va Shahrixon tumanda (130,0 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Andijon viloyati.	2 232,3	107,7
Andijon shayar	644,2	119,0
Xonobod shayar	49,3	104,4
Oltinko'l tumani	69,0	100,5
Andijon tumani	249,3	133,2
Baliqchi tumani	40,3	101,6
Bo'ston tumani	65,7	102,4
Buloqboshi tumani	29,9	103,0
Jalaquduq tumani	62,7	106,9
Izboskan tumani	75,4	104,4
Ulug'nor tumani	30,7	101,9
Qo'rg'ontepa tumani	52,3	103,3
Asaka tumani	70,1	108,1
Marhamat tumani	82,1	107,5
Shahrixon tumani	130,0	100,2
Paxtaobod tumani	63,2	104,2
Xo'jaobod tumani	60,6	128,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

**II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya,
kengaytirish, texnik qayta jihozlash ishlari**


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 72,1 foizi yoki 1608,9 mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Jumladan:

Yirik qurilish tashkilotlari – **130,1** mlrd so'm, *jamiga nisbatan ulushi – 8,1 %*;

Kichik korxona va mikrofirmalar – **974,2** mlrd so'm *hamda ulushi – 60,5 %*;

Norasmiy sektor – **504,6** mlrd so'm *hamda ulushi – 31,4 %*.

Yangi qurilish ishlari hajmining bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi



2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Andijon shahri (344,8 mlrd so'm), Andijon tuman (130,4 mlrd so'm) Shahrixon tuman (104,0 mlrd so'm) va Marhamat tuman (65,2 mlrd so'm) qayd etildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Yangi qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-mart oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 69,8 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,1 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,8 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 9,4 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 82,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,7 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,3 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 5,0 % punktga kamayib 57,9 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,3 % punktga kamayib, 34,4 % ni tashkil etdi.

Bino va inshootlar qurilishining hajmi va o'sish sur'ati



Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Andijon shahar (31,9 %), Andijon tuman 11,0 %) va Oltinko'l tumani (6,9 %) kuzatildi.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 28,7 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 11,6 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 11,6 % punktga kamayib 71,3 % ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Andijon shahar (17,4 %), Andijon tuman (9,9 %) va Oltinko'l tumani (2,8 %) kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 5,9 % punktga kamaydi va 0,1 % ni tashkil etdi.

Qolgan 99,9 foizi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ko'paydi.

Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Andijon shaharda (31,5 %), Andijon tumanda (15,2 %) va Oltinko'l tumanda (5,8 %) kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-mart oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 300,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 266,1 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 13,5 % ga ko'payib, 8,0 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,9 foizi to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,1 % ni tashkil etgan holda 1426,9 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 22,6 % ni yoki 504,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 78,7 % ni tashkil etdi. Shundan 423,9 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 77,1 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 29,5 mlrd so'mni va 68,0 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 51,2 mlrd so'mni va 106,2 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Andijon viloyati.	300,8	1 426,9	504,6	266,1	108,1	78,7
Andijon shayar	123,5	490,3	30,4	392,5	103,9	79,3
Xonobod shayar	1,2	46,3	1,9	237,0	112,5	33,8
Oltinko'l tumani	0,2	64,9	3,9	2,4	124,0	54,5
Andijon tumani	99,4	142,1	7,9	914,1	85,2	81,7
Baliqchi tumani	0,2	27,5	12,6	20,1	122,5	76,8
Bo'ston tumani	1,3	58,3	6,2	191,4	111,6	54,8
Buloqboshi tumani	1,2	20,1	8,7	76,8	129,5	72,0
Jalaquduq tumani	9,6	32,4	20,7	70,9	153,2	86,1
Izboskan tumani	0,7	69,8	4,9	59,7	109,8	65,8
Ulug'nor tumani	3,2	25,7	1,8	60,8	132,7	33,0
Qo'rg'ontepa tumani	2,5	28,9	20,9	129,2	104,9	98,7
Asaka tumani	3,5	29,2	37,4	135,5	147,8	87,8
Marhamat tumani	0,3	63,0	18,8	40,9	120,1	80,9
Shahrixon tumani	0,6	109,7	19,8	13,8	107,0	84,9
Paxtaobod tumani	0,9	37,3	24,9	146,5	117,7	88,1
Xo'jaobod tumani	6,5	50,1	4,0	488,8	136,0	43,0

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Andijon shaharida (2024-yilning mos davriga nisbatan 392,5 %), Andijon tumani (9,1m. %) va Xo'jaobod tumani (488,8 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Jalaquduq tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 153,2 %), Asaka tuman (147,8 %) va Xo'jaobod tuman (136,0 %) kuzatildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Qo'rg'ontepa tuman (2024-yilning mos davriga nisbatan 98,7 %), Asaka tuman (87,8 %) va Paxtaobod tuman (88,1 %) qayd etildi.

V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
A. Usmonov
74 224-29-37 (6020)

Manzil:

